



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> February, 2025

## **O'QUVCHI YOSHLARNI TARBIYALASHDA OILA VA KASBIY TA'LIM TASHKILOTI BILAN HAMKORLIK**

Rustamova Nargiza Baxtiyorovna

Navoiy viloyati Qiziltepa 1-son politexnikum direktori

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqola o'quvchi yoshlarni tarbiyalashda oila va kasbiy ta'lim tashkilotlari o'rtaqidagi hamkorlikning ahamiyati va samaradorligiga bag'ishlangan. Maqolada ushbu hamkorlikning turli shakllari, unda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, kasbiy ta'lim, hamkorlik, tarbiya, o'quvchi, bola, pedagogika, psixologiya.

### **Аннотация:**

данная статья посвящена значимости и эффективности сотрудничества семейных и профессиональных образовательных организаций в воспитании учащейся молодежи. В статье подробно рассматриваются различные формы этого сотрудничества, проблемы, которые в нем возникают, и пути их преодоления.

**Ключевые слова:** семья, профессиональное образование, сотрудничество, воспитание, ученик, ребенок, педагогика, психология.

### **Annotation:**

This article is devoted to the importance and effectiveness of cooperation between family and professional education organizations in the education of student youth. The article covers a wide range of different forms of this cooperation, the problems that arise in it and the ways to eliminate them.

**Keywords:** family, professional education, cooperation, upbringing, student, child, pedagogy, psychology.



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> February, 2025

## KIRISH

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijadorligi yurt ravnaqi va taraqqiyotini belgilab berishdagi muhim omillardan biridir. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga jiddiy e’tibor qaratib kelinyapti.

2024-2025 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun fanlar kesimida “Kasbiy rivojlanish kuni” hamda “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlari o‘tkazilishi belgilangan. Mamlakatimizning barcha hududlarida treninglar o‘tkazilib, unda maktab direktori o‘rinbosarlari, boshlang‘ich sinf yetakchi o‘qituvchilari faol ishtirok etdi. Treninglarda KRK va KRS tadbirlarining mohiyati hamda ta’lim sifatini oshirishda o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlarining roli haqida ma’lumot berildi.

Shuningdek, ishtirokchilar ushbu jarayonni yana-da samarali tashkil etish bo‘yicha bergen savollariga batafsil javob oldi.

Treninglar xalqaro ta’lim tashkilotlarining metodik materiallari asosida o‘tkazilib, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etishga qaratildi.

2024-yil 16-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan «Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-158-sون Farmoni kasbiy ta’lim tizimida muhim o‘zgarishlarning yuzaga kelishida, hamda islohotlarning avj olishida dasturul amal bo‘lib xizmat qildi. Mazkur huquqiy hujjat mamlakatda malakali kadrlarni tayyorlash, xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish va iqtisodiyotning zamon talablariga moslashadigan ta’lim tizimini yaratishga qaratilgan keng qamrovli rejalarining boshlanishidir. Unda nafaqat kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirish, balki ta’lim va ishlab chiqarish sektori o‘rtasidagi integratsiyani chuqurlashtirish ham nazarda tutilgan.

## ASOSIY QISM

Ilg‘or o‘qituvchilar tajribasining ko`rsatishicha, o‘quvchilar ahil jamoa bo`lib uyushgandagina tarbiya ishlarini amalga oshirish ancha yengil bo`ladi va muvaffaqiyati ta`minlanadi. Yaxshi uyushgan sog`lom jamoada o‘quvchilarning



# E CONF SERIES



## International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> February, 2025

fikri juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo`ladi va tarbiya jarayonida o`qituvchilarning tayanchiga aylanadi

Bugungi kunda o`qituvchi-olimlar (L.I.Nikova va boshqalar) bolalar jamoasining rivojlanish jarayonining mohiyatini tahlil qilar ekanlar, uni quyidagi uch bosqichga bo`ladilar:

- jamoani dastlabki jipslashtirish;
- jamoani shakllantirish asosida uning har bir a'zosini individual rivojlanish;
- Jamoaning umumiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

O`quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari. Jamoani shakllantirishda jamoa a'zolari va ularning faoliyatlariga qo'yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi.

O`qituvchilar tomonidan qo'yilgan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

1. Qo'yilayotgan talablar o`quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg'usi bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak.
2. Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim.
3. Jamoaga nisbatan qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi lozim.
4. O`quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Kasbiy ta'lim tashkiloti oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi sinf yoki guruh rahbari orqali amalga oshiriladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o'rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi;
- O`quvchiga nisbatan ta'lim tashkilotining va oilaning yagona talablar qo'yishga erishadi;
- Sinf yoki guruh ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning sinfdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta'minlaydi;
- Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko'taradi;



# E CONF SERIES



## International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> February, 2025

- Guruh yoki sinfga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va mакtabga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o'rnatadi va ularni sinfdagi tarbiyaviy ishlarga jalgiladi.

Guruh yoki sinf rahbarining o'quvchini yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir- birlariga qanchalik ko'p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog'liq. **Ana shu maqsadda sinf rahbari oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:**

O'quvchining o'quv mehnatiga tavsifnomasi, o'qishdagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi, ularning sabablari, olayotgan baholari.

O'quvchinnig ijtimoiy faolligi haqida axborotlar, o'quvchining jamoa hayotidagi

ishtiroki nimalardan iborat ekanligi, jamoat topshiriqlari va vazifalarning bor-yo'qligi, sababi, ularga o'zining munosabati.

O'quvchining o'z o'rtoqlari, o'qituvchilari bilan munosabatida vujudga kelgan holatlarning xarakteri, mакtabdagi munosabatlarnig doirasi.

O'quvchining ayrim hatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish. Oilaga o'quvchi tarbiyachi haqida maslahat va tavsiyalar.

**Oila ham o'z navbatida farzandi haqida o'z mulohazalari, kuzatishlari yuzasidan sinf rahbariga quyidagi mazmunda ma'lum axborotlar berib borishi mumkin:**

- Farzandi uya berilgan vazifalarni qanday bajaradi, unga sarflaydigan vaqt, dars tayyorlash tartibi, mustaqillik darajasi.

Belgilangan kun tartibining bola tomonidan bajarilishi.

O'quvchining maktab haqidagi hikoyalari, taassurotlari, gaplari, sinf hayotidagi turli voqealarga baholari.

Ota-onaning ayrim o'qituvchilardan, sinf rahbaridan, maktab rahbarlaridan iltimoslari va takliflari.

Sinf rahbari bilan oila o'rtasidagi bu xildagi o'zaro xabarlashuvlar o'quvchini to'la o'rganishga, ta'lim va tarbiyada shu o'quvchi uchun eng maqbul tarbiya va ta'sir vositasini topishga yordam beradi. Sinf rahbari o'z kuzatishlari, oiladan olgan



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> February, 2025

axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'plangan ma'lumotlarni vaqtiga o'rGANISH bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo'llari, keyingi rejalarini belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib bo'lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Guruh rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari tajribasida shaxsiy, sinf-sinfli va ommaviy kabi shakllar keng tarqagan. Ayniqsa, uning ota-onalar bilan olib boradigan ommaviy ishlari bu sohadagi faoliyatinnig asosiy yo'nalishidir. Chunki bu barcha ota-onalarni birlashtiradi hamda ularni ta'lim tashkiloti talablari bilan tanishtirish, jamiyatning tarbiyadan kuzatadigan maqsadlari, ota-onaning vazifalari, tarbiyani amalga oshirish yo'llari, uslub va shakllari haqida bilim berish, sinf hayotidagi o'zgarishlar, rejalar haqida maslahatlashish uchun pedagogik ma'ruzalar tashkil etish ilmiy anjumanlar, "ochiq eshik" kunlari, savol-javob kechalari, ota-onalar majlislari o'tkazish ommaviy ishning turlaridir.

Rahbarining tajribasida ota-onalar majlislari keng tarqagan va qaror topgan ish shaklidir. Bu majlislar sinf ota-onalar jamoasining yuqori organi sifatida o'z qarorlari bilan sinfdagi, oiladagi va turar joylardagi amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning vazifasini va yo'nalishini belgilab beradi.

Guruh ota-onalar majlislarining bir necha xili mavjud: sinfdagi tashkiliy ishlari bilan bog'liq majlislar, ota-onalarga pedagogik ma'lumot berishga bag'ishlangan majlislar, munozara shaklidagi majlislar, yarim yillik yoki yil yakuniga bag'ishlangan majlislar. Bu majlislarning har biri o'z maqsadiga tayyorlash va o'tkazish tartibiga ega.

Tashkiliy masalalar bilan bog'liq sinf ota-onalari majlisida odatda ota-onalar sinfi saylanadi, ish rejalarini tasdiqlanadi, ota-onalar o'rtasidagi vazifalar taqsimlanadi.

Ko'pgina ta'lim tashkiloti guruh rahbarining ota-onalar bilan olib borayotgan ishlari tajribasida savol-javob kechalari, maslahatlar va munozaralar ham vujudga kelmoqda. Maslahatlar ko'proq shaxsiy ish shakli bo'lib, unga sinf rahbari ota yoki onaga farzandini tarbiyalashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va boshqa masalalar yuzasidan aniq maslahatlar beradi. Sinf rahbari o'zining shaxsiy suhbatini, oilani o'rGANISH va kuzatish asosida to'plagan ma'lumotlarni ota-onalar bilan



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> February, 2025

o'tkaziladigan ishlarni hisobga olib boradigan maxsus jurnaliga yozib borishi g'oyatda muhim. Agar bu xil jurnalni sinf rahbarlari har yili muntazam holda yuritib borsa, u tarbiyaviy ta'siri yaxshilashning muhim vositasiga aylanadi.

Ota-onalar bilan ish olib borishda ishlashning xilma-xil shakl va metodlaridan foydalanishi lozim. Ota-onalar bilan ishslashga shaxsiy ishlar jamoa bilan birgalikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. **Biz quyida ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari bilan tanishib chiqamiz:**

O'quvchilarning uylariga borish – bu oila bilan aloqa qilishning eng samarali shakllaridan biridir. Bunda sinf rahbari o'quvchining ota-onasi, uning yashash sharoiti, moddiy imkoniyatlari bilan tanishishga imkon topadi.

Ota-onalarni ta'lim tashkilotiga chaqirish. Bundan maqsad, faqatgina o'quvchilarning xulqi, savodliligi va boshqa xususiyatlari bilan ota-onani tanishtirish emas, balki shu bilan birgalikda ota-onalarga pedagogik va ruhiy maslahatlar berib, ularga o'quvchini oilada tarbiyalashlariga yordam ham qilishdir.

Ota-onalar bilan ishslash. Bu esa o'quvchiga chaqiriqlar yoki maxsus da'vatnomalar orqali amalga oshiriladi.

Ota-onalar sinf majlisini o'tkazish. Bu shakldagi aloqa maxsus ish rejasи orqali amalga oshiriladi.

Ota-onalarni maxsus pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish maqsadida ular bilan suhbat va ma'ruzalar o'tkaziladi.

Savol-javoblar kechasi. Ishning bu shakli sinf o'quvchilarning xususiyati, xarakterini yaxshiroq o'zlashtirish imkonini beradi.

**Ota-onalarning tarbiya borasidagi ilg'or tajribalar bilan fikr almashish, o'rtoqlashish. Bu narsa quyidagi mavzuda bo'lishi mumkin:**

- yoshlarni qanday qilib mehnatga tayyorlash mumkin?
- o'quvchining kundalik rejimi haqida.

"Ota-onalarning obro'si" haqida, "Oilada yoshlarga axloqiy tarbiya berish" va hokazolar to'g'risida anjumanlar o'tkazish.

Maktab qoshida ota-onalar universitetlarini tashkil etish va bu universitetlardan tizimli ish olib borish:

ota-onalarni tarbiya sohasidagi adabiyotlar bilan tanishtirish.



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> February, 2025

Bizning yosh avlod xalqimizniig inqilobiy, mehnat, jangovar an'analarini o'zlashtirib, o'ziga katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini — g'oyaviy e'tiqod va matonatni, Vatanga muhabbatni, uning iqtisodiy, siyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishga intilishni singdiribgina o'z bobolari va otalari ishini davom ettira va ko'paytira oladi. Bu ishda ota-onalar ayniqsa muhim o'rinn tutishlari kerak.

Buni barcha sinf rahbarlari nazarda tutishlari muhimdir, Bunda shaxsning huquqiy yetukligi shaxs ijtimoiylashuvining mahsuli ekanligini har bir oilaga tushuntirish g'oyat muhimdir. Oila shaxs uchun uning ijtimoiylashuv jarayoni ro'y beradigan, uning axloqi, dunyoqarashi asoslari va hokazolar tarkib topadigan dastlabki va nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lган jamoadir.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli pavishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatiishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur bo'g'iniga ham aylantiradi.

Oilaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati shaxslar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, muhabbat, yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obro'liligi va hokazolar bilan ta'minlanadi. O'z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini yurgakdagi chog'idan biladigan, uning qalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta'sir etishni biladigan onadan va otadan yaxshiroq kim ham ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, do'stlikka, muhabbatga o'rgata oladi!

O'zbekiston Respublikasining kasbiy ta'lim tizimining nafaqat mamlakat ichidagi ehtiyojlariga mos, balki xalqaro ta'lim tizimlariga javob beradigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan zamonaviy tizimga aylanishi kutiladi. Bunday islohotlar, ayniqsa, yoshlarning sifatli ta'lim olishiga, mehnat bozori uchun zarur bo'lган malakali mutaxassislarning tayyorlanishiga va iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Ta'lim sohasidagi bu yangilanishlar, yurtimizning kelajakdagi muvaffaqiyatli rivojlanishining poydevorini yaratadi.



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> February, 2025

## XULOSA

Har bir mamlakatning ravnaqi, istiqboli ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijadorligiga bevosita bog'liq. Shu bois, so'nggi yillarda yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, malakali kadrlar tayyorlash ishlarini sifat darajasiga ko'tarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### **O'quvchi yoshlarni tarbiyalashda oila va kasbiy ta'lim tashkiloti bilan hamkorlik**

O'quvchi yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun oila va kasbiy ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bu hamkorlik yosh avlodni bilimli, madaniyatli va vatanparvar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### **Hamkorlikning ahamiyati**

- Oila va ta'lim tashkilotining o'zaro ta'siri:** Oila bolaning birinchi va eng muhim tarbiyachisi hisoblanadi. Maktab esa bolaning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu ikki muhitning birligidagi harakatlari bolaning shaxsiy rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.
- Bolani tushunish va qo'llab-quvvatlash:** Oila va maktab o'qituvchilar birligida bolaga qiyinchiliklarni engishga yordam berishi, uning qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin.
- Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish:** Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, chunki ota-onalar farzandlarining o'qish jarayonida faol ishtirok etishadi.
- Yoshlarning ijtimoiylashuvi:** Maktab va oila hamkorligi yoshlarning ijtimoiy muhitga moslashishini osonlashtiradi, ularni jamiyatning faol a'zosi bo'lishga tayyorlaydi.

#### **Hamkorlikning shakllari**

Oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- Ota-onalar yig'inlari:** Maktabda muntazam ravishda ota-onalar yig'inlari o'tkazilib, o'quvchilarning o'quv jarayonidagi yutuqlari va muammolari muhokama qilinadi.
- Ochiq darslar:** Ota-onalar o'quv jarayoniga bevosita jalb qilinib, ochiq darslarda ishtirok etishlari mumkin.



# E CONF SERIES



## International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> February, 2025

- **Maslahat berish:** O'qituvchilar ota-onalarga farzandlarini tarbiyalash borasida maslahatlar berishi, ularga psixologik yordam ko'rsatishi mumkin.
- **Birgalikda tadbirlar tashkil etish:** Maktab va oila birgalikda turli mavzudagi tadbirlar, bayram tadbirlari, ekskursiyalar tashkil qilishi mumkin.
- **Onlayn platformalardan foydalanish:** Zamonaviy texnologiyalar yordamida ota-onalar o'quv jarayonini onlayn rejimida kuzatib borishi, o'qituvchilar bilan muloqot qilishi mumkin.

### Hamkorlikning muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari

Oila va maktab o'rtaсидаги hamkorlikda ba'zi bir muammolar yuzaga kelishi mumkin:

- **Ota-onalarning befarqligi:** Ba'zi ota-onalar farzandlarining o'qish jarayoniga befarq bo'lishi mumkin.
- **Vaqt yetishmasligi:** Ota-onalarning bandligi tufayli maktab bilan hamkorlik qilish uchun vaqt topolmasligi.
- **O'qituvchilarning tajribasi yetishmasligi:** Ba'zi o'qituvchilar ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lmasligi mumkin. Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralarni ko'rish mumkin:
  - **Ota-onalarni jalg qilish:** Ota-onalarni maktab hayotining barcha jihatlariga jalg qilish, ularning fikr va takliflarini inobatga olish.
  - **O'qituvchilarning malakasini oshirish:** O'qituvchilarga ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish bo'yicha treninglar o'tkazish.
  - **Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish:** Onlayn platformalar orqali ota-onalar bilan aloqani yanada mustahkamlash.

Oila va kasbiy ta'lim tizimi o'rtaсидаги hamkorlik o'quvchi yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Bu hamkorlik yosh avlodni bilimli, madaniyatli va vatanparvar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori, 30.09.2024 yildagi PQ-345-son.
2. Baubekova Z.D.Tarbiyaviy ishlar metodikasidagi ko'rsatmalar. – T. 1991 y.



# E CONF SERIES



**International Educators Conference**

**Hosted online from Toronto, Canada**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

7<sup>th</sup> February, 2025

---

3. Ismailova Z. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi.T.:2006.
4. Mavlonova.R., O`To`raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika.-T.: "O`qituvchi", 2002.
5. Mavlonova R., B. Normurodova, N. Rahmonqulova, Tarbiyaviy ishlar metodikasi. - T.: "Tib-kitob", 2010.
6. Ortiqov N.O., Jo`rayev A.J. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi kengashi. T.: "O`qituvchi", 1989.
7. Ochilov M. "Muallim – qalb me'mori" T.: "O`qituvchi" 2021..
8. Ochilov M. "O`qituvchi odobi" T.: "O`qituvchi" 2017.
9. Ruvinskiy P.I. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.. – T. 2015 y.
10. Raximjonov N. "Yoshlar iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda oilaning roli" T., 2005 (B.M.I.)
11. Yo`ldoshev J. «Zamonaviy o`zbek oilalarida o'smir bolalar shaxsining shakllanishi» nomzodlik dissertatsiyasi, T., 2002
12. [w.w.w. ziyonet . uz](http://www.ziyonet.uz)
13. [w.w.w. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)